

XUSHXABAR

8 YOSHLI ISFANDIYOR – XALQARO TANLOV G'OLIBI

Kuni kecha Ispaniya davlatida «Sea Sun festival» nomli xalqaro musiqa tanlovi bo'lib o'tdi. Dunyoning 13 mamlakatidan 300 nafarga yaqin yosh musiqachilar qatnashgan ushbu festivalda Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi 23-umumta'lim maktabining 3-«B» sinf o'quvchisi Isfandiyor MAHMUDOV o'z iste'dodini namoyish etib, 1-o'ringa sazovor bo'ldi. Uning gitarada ijro etgan – dunyoning mashhur bastakorlari tomonidan bastalangan «Vals», «Blyuz» musiqiy asarlari hakamlar hay'ati tomonidan yuqori baholandi.

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:21 (67082)
2016-yil
23-may

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN – 2010-6092

XAYR MAKTAB, SALOM KOLLEJ! OQ YO'L SIZGA, BITIRUVCHILAR!



Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 228 nafar bitiruvchilari ham o'z oldilariga ulkan maqsadlar qo'yib, bu yo'lda dadil odimlamoqda.

Joriy yilda mamlakatimiz umumta'lim maktablarini 476616 nafar yigit-qizlar tamomlamoqda. Ularning 42870 nafari akademik litseylarda, 433738 nafari esa kasb-hunar kollejlari tahsil olish istagini bildirgan. Biz barcha bitiruvchilarga katta hayot ostonasida omad va zafarlar tilaymiz!

KITOBSEVARLAR DIQQATIGA!

Joriy yilning 26–28-may kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyat markazlarida hamda poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan

«KITOB BAYRAMI» bo'lib o'tadi.

Barcha kitobsevarlarni ma'naviy-ma'rifiy anjumanga taklif etamiz!



ONALARGA EHTIROM

Qalbindagi o'zgacha bir tug'yon meni tez-tez Mustaqillik maydoniga chorlaydi. Bu mo'tabar maskanga har gal borganimda, o'zimdagi tengsiz bir hissiyotni, g'urur va faxr tuyg'usini his etaman. Maydon kiraverishidagi go'zal favvoralar orasidan o'tar ekanman, «Baxtiyor ona» yodgorligi sari oshiqaman. Go'yo farzand mehribon onasiga talpinayotganday. Qalbda hayajon. Qadamlar ravon. Nigohlar manzilga qadalgan.



Bu yodgorlik har birimiz uchun alohida e'zozli. U Istiqlol sharofati ila bunyod etildi va chin ma'noda unga «Baxtiyor ona» deb nom berildi.

«Baxtiyor ona» – mustaqil O'zbekistonimizning qalbi, faxri-g'ururi bo'lib, butun dunyodan Vatanimizga tashrif buyurayotgan barcha ulug' insonlarni qarshi olmoqda. Ular onalarga ko'rsatilgan bunday ehtirom uchun xalqimizga tashakkurlar aytib, yodgorlik poyiga gulchambarlar qo'ymoqdalar.

Haykalga boqib, xayolga cho'maman. Ona sevimli farzandini erkalab, «Sening ona yurtning – O'zbekistonning kelajagi porloq», deyayotganday.

Bu maydonda yana bir yodgorlik bor. U bugungiday ko'pchilik orzu qilgan tinchlik uchun jonini fido qilib, ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan farzandlaridan nola chekayotgan mo'tabar zot «Motamsaro ona» haykalidir.

Men «Motamsaro ona»ga razm solar ekanman, bo'lib o'tgan dahshatli urush minglab onalarning boshiga nene kulfatlar solganini va tinchlikning qadri nechog'lik bebaho ekanligini dildan his qildim. Shu o'rinda Yurtboshimizning: «Tinch va osoyishta hayot, barqarorlik o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun barchamiz shu musaffo osmonni saqlash, asrash uchun kurashishimiz, fidoyilik ko'rsatishimiz zarur», degan purma'no so'zlari xayolimga kelaveradi, kelaveradi...

Jabbor RAZZOQOV

Prezidentimizning 2014-yil 6-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosi doirasida tashkil etilgan ushbu intellektual bellashuv to'rt bosqichda amalga oshirildi.

Bilimdonlar birinchi shartga ko'ra 25 daqiqada ichida 25 ta test savoliga javob berishgan bo'lsa, 2-shartda ishtirokchilarning har bir to'g'ri javobi 10 ballik tizimda baholanib borildi.

Ishirokchilar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati, yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati, huquqshunoslikka oid test sinovlaridan o'tdi. Shuningdek, jinoyatchilikning

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, «Kamolot» YOIH hamda qator vazirlik va idoralar hamkorligida «Biz – buyuk yurt farzandlarimiz!» shiori ostida joylarda yoshlar festivali o'tkazilmoqda. Ana shunday tadbirlar Andijon va Farg'ona viloyatlarida ham bo'lib o'tdi.

OZOD ELNING ORZULARI OSMON BO'LGAY




Uch kun davom etgan festival doirasida 18 ta loyiha tashkil etildi. Jumladan, Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi 21-bolalar musiqa va san'at maktabida o'tkazilgan «Kamolot» kutubxonasi loyihasida o'quvchilar kitob va kitobxonlik xususida, o'zlari o'qigan adabiyotlar haqida o'zaro fikr almashdilar.

Shahrixon, Oltinko'l, Buloqboshi, Paxtaobod tumanlarida o'tkazilgan «Odam savdosi – davr muammosi», «Diniy ekstremizm va terrorizm – yoshlar kelajagiga tahdid», «Biz – sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz!» kabi loyihalar o'quvchilarni ogohlikka, milliy Istiqlol g'oyalari hamda qadriyatlarimizni e'zozlashga chorladi.

Yoshlarni yagona ezgu maqsad yo'lida birlashtirgan mazkur festival doirasida Farg'onadagi Ahmad Farg'oniy nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida «Jaholatga qarshi ma'rifat», «Men diniy ekstremizm va terrorizmning tahdidini qanday tushunaman?» mavzularida rasmlar ko'rik-tanlovi o'tkazildi.



– Men bo'sh vaqtlarimda Andijon shahridagi «Barkamol avlod» bolalar markazining «Tasviriy san'ab» to'garagiga qatnayman, – deydi 1-umumta'lim maktabining 6-«D» sinf o'quvchisi Ahror Sultonov. – Ustozimiz bilan Bog'ishamol adirliklariga sayohatga chiqdik. U yerdan o'zimga yoqqan kattaroq toshlarni saralab olib, tabiat manzaralarini toshda aks ettirdim. Men shunday jannatmakon yurtda yashayotganimdan faxrlanaman.



F. SOYIBJON qizi

Kuni kecha poytaxtimizda umumta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida «HUQUQ BILIMDONLARI» ko'rik-tanlovining mamlakat bosqichi bo'lib o'tdi

Respublika bosqichida o'g'oliblikni kiritgan 70 o'quvchilardan iborat jamoalar o'zaro bellashdi.

oldini olish hamda huquqiy madaniyatning ahamiyatiga doir sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

– Biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo'lmaymiz. Biz uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Shunday ekan, bu

g'amxo'rlikka munosib javob berishimiz, o'qib-izlanishimiz lozim, – deydi bir ovozdan «Yuristlar» jamoasi a'zolari.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va ko'plab tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan mazkur tanlov yurtimizda 2014-yildan buyon o'tkazib kelinadi. Ushbu intellektual bahsga o'quvchilarning qiziqishi yildan-yilga ortib borayotgani bilan ahamiyatlidir.

Tanlov natijalariga ko'ra, Samarqand viloyatining «Yuristlar» jamoasi 1-o'rinni, Qashqadaryo viloyatining «Yosh huquqshunoslar» jamoasi 2-va Toshkent shahrining «Femida» jamoasi 3-o'rinni qo'lga kiritishdi.

F. ABDUSAMAD qizi





«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG»

tanloviga

TEJAMKORLIK - OLIY FAZILAT

SUV QADRIGA YETYAPMIZMI?

Qishlog'imiz Mirzacho'l kengliklarida joylashgan bo'lib, aholining toza ichimlik suviga ehtiyoji katta. Davlatimizning e'tibori sababli, qishloqqa ancha yillardan buyon maxsus mashinalarda obihayot yetkazib beriladi. Shu bois, tengdosh do'st-u dugonalirim bilan suvni non kabi e'zozlashga, uning har tomchisini avaylashga odatlanganmiz. Lekin hayotda shunday insonlar ham borki, ular tabiat ne'matlaridan o'zboshimchalik bilan foydalanadi.

Odamlarning farovon hayot kechirishida elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichimlik suvining o'рни beqiyos. Bugun dunyoning ko'plab mamlakatlari ana shu ne'matlarining yetishmasligi sabab, odamlar turmushda turli qiyinchiliklarga ro'baro' kelmoqda.

Sinf rahbarimiz ham tarbiyaviy soatlarda suv, elektr energiyasi, tabiiy gaz kabi bebaho boyliklarimizdan tejab, omilkorlik bilan foydalanishimiz lozimligini uqtiradi. Ustozimizning aytishicha, bu bilan davlatimiz iqtisodiga katta foyda keltirar ekanmiz.

Shunday ekan, keling, aziz tengdoshlar, milliy boyliklarimizni borida qadrlaylik!

Farangiz TOSHBULOVA,
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi
10-umumta'lim maktabining 5-«V» sinf
o'quvchisi

Biz yashayotgan mavzuda suv quvurlarini ta'mirlash ishlari ketayotgani sababli, bir kuni ertalab uyimizda suv to'xtab qoldi. Bu haqda oldindan ogohlantirishgani uchun idishlarga suv olib qo'yg'an edik. Shu kuni ertalab odatdagidek yuz-qo'limni va tishlarimni yuvdim. Ana shu jarayonda bir holdan ham ajablanib, ham hayratlanib ketdim. Ishonasizmi, tishlarimni yuvish uchun bor-yo'g'i bir stakan suv ketdi. Shunda birdan boshqa kunlarda tishim, yuz-qo'limni yuvish chog'ida suvni sharillatib oqizib qo'yishlarim yodimga tushdi. O'ylab ko'rsam, har safar ana shu 2-3 daqiqa davom etadigan ozodalik yumushi jarayonida kamida 5-10 litr suv oqib ketar ekan. Natijada, qancha suv isrof bo'larkan.

Endi o'ylab ko'ring, yurtimizda menga o'xshagan yoshlar qancha... Agar o'shalarining hammasi tishini, yuz-qo'lini yuvish jarayonidagi bekorga oqizib qo'yg'an suvlarini hisoblab chiqsak, qancha bo'larkan?

Ana shular haqida o'ylar ekanman, beixtiyor ko'z oldimga oynayi jahonda ko'rganim, o'lis mamlakatlardagi qurg'oqchilik manzaralari keldi. Shunda o'z-o'zidan tog'larimizdan sharillab oqib kelayotgan daryolar, soylar, ichsang ming dardga shifo bo'ladigan sonsiz buloqlarimizni dildan o'tkazdim.

Uyda-chi, hech qanday ortiqcha ovoragarchiliksiz istagimiz muhayyo: xohlasak issiq, xohlasak sovuq suv kecha-kunduz ixtiyorimizda. Shu kundan boshlab, har kuni suvdan foydalanishda uni isrof qilmaslikka harakat qiladigan bo'ldim. Tasavvur qiling, mana shu isrof qilinayotgan suvlarni foydali ish uchun sarfflasak, yana qancha joy chamanzorga aylanadi...

HAR BIRIMIZ MAS'ULMIZ

O'zbekistonda qazilma boyliklari juda ko'p. Har yili yurtimizda million tonnalab neft, gaz, ko'mir, oltin, kumush, temir, mis, alyuminiy va boshqa metall rudalari qazib olinmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz marmar, neft, uran va gaz qazib olish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Qolaversa, O'zbekistonimizdan oqib o'tuvchi bir nechta yirik daryolar qishloq xo'jaligi rivojida, elektr energiyasi ishlab chiqarishda asosiy o'rin tutadi.

Bugun oynayi jahon orqali dunyoning ko'plab mamlakatlarida ichimlik suvi tanqisligi kuzatilayotgani haqida ma'lumotlarga ega bo'lmoqdamiz. Ayniqsa, Afrikaning aksar davlatlaridagi qurg'oqchilik aholi o'rtasida turli yuqumli kasalliklarning avj olishiga sabab bo'laytir. Shuningdek, tabiiy gaz va neft tanqisligi ham odamlar hayotini murakkablashtirmoqda.

Shukurki, yurtimiz bunday muammolardan xolidir. Lekin bu xotirjamlikka berilish kerak ekan, degani emas. Aksincha, har birimiz yurtimiz boyliklarini ko'z qorachig'idek asrab, undan oqilona foydalanishimiz, kelajak avlodga yetkazishimiz zarur.

Bahora MAMADIYOROVA,
Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi
13-umumta'lim maktabining 7-sinf
o'quvchisi

Anora HOJIMATOVA,
S. Sirojiddinov nomidagi akademik litsey
o'quvchisi

Samarqand viloyati,
Qo'shrabot tumanidagi
68-umumta'lim
maktabining «Nafis
san'at» to'garagi
a'zolari gazetamizning
faol mualliflari. Ular
yuborgan rasmlar
ko'plab gazetonlar kabi
tahririyat xodimlariga
ham o'ziga zavq
bag'ishlaydi.



Xizmat safari bilan yana yo'lga chiqdim. Bepoyon yurtimizning dasht-u dalalari, qir-adirlari hosilini ko'z-ko'z aylayotgan bog'rog'lariga mahliyo bo'lib, chor-atrofga boqaman. Ravon yo'llar, ko'kka bo'y cho'zgan zamonaviy binolar, hisobsiz mashinalar oqimi. Tinch va musaffo osmon. Simyog'ochlarga o'zi uchun oshyon qurgan oppoq, beozor laylaklar. Oltindек tovlanishga shay turgan bug'doyzorlar, bebaho tuprog'imizning sehhri dunyosini kuyunchak musavvir kabi qorachilarimga jo etib ketayapman.

Oldimdan Sirdaryo chiqadi, tarixi ming yillarga borib taqaladigan sirli daryo. Kundan kun chiroy ochib

SIRDARYONING SIRLI OLAMI

borayotgan yurtimizning jamoliga ko'z tegmasin, deyman. «Kim edig-u, kim bo'ldik, ertaga qanday yuksak marralarni egallashimiz kerak?» degan savol bilan sirdaryolik yoshlarning beg'ubor olamiga sayr etarkanmiz, ko'zlaridan o't chaqna b turgan o'g'il-qizlarimizning erishgan hisobsiz yutuqlari aqlimizni shoshirdi. Ular, ayniqsa, sport sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarini so'zlashdan tolmasdi. Turli fanlar bo'yicha «Bilimlar bellashuvi»ning g'olibi bo'lgan yana bir qancha yoshlarimiz o'z ustida tinimsiz ishlayotganiga guvoh bo'ldik. Ular kelajakda o'zlarining bilim va salohiyati bilan dunyo

ahlini lol qoldirib, O'zbekiston atalmish jannatmakon yurt sha'nini ulug'lashga loyiq farzandlar bo'lib yetishlarini qalbdan his qildik...

Biz kattalarning ibratli pand-nasihatlarini goh hayratlanib, goh hayajonlanib tinglayotgan o'quvchilarimizga bosib o'tgan hayot yo'llarimiz haqida hikoya qildik. Muhtaram Yurtboshimizning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» so'zlaridan kelib chiqqan holda, Istiqolga osonlikcha erishilmaganligi-yu, bolalik xotiralarini bilan bog'liq bo'lgan taassurotlar haqida so'zladik. Xayolimizdan kino tasmasidek o'tib borayotgan bolalikning quvonchli damlarini qurbon aylagan paxta maydonlari jonlandi. Mehribon ustozimiz Xudoyor Rahmonullayev

boshchiligida noyabr oyining so'nggi kunlarida ham biz kichkintoylar sovuqda qaltirab, paxta maydonlarini tark etmasdik. Sovuq kunlarning birida ustozimiz dala boshida olov yoqib, galma-gal biz o'quvchilarning chanoqlardan tilinib qolgan jajji qo'lchalarimizni iltishga chorlardi. Kutilmaganda yonimizga «kattakon»larning mashinasi kelib to'xtadi. Mashinadan otilib chiqqan kishi ustozimizning yoqqan olovini toptab tashladi.

— Uyalmaysizmi, kap-katta odam o'quvchilarni paxta terimidan qoldirib, olov atrofiga olib o'tirishga?! — dedi boshliq ijg'ranib. Ustozimizning yuzi olaydan «bekorga» yoqqan olov kabi lovullab ketdi. U kishi kechirim so'rab, dedi:

— Bolalarimizning qo'llari sovuqdan muzlab ketyapti. Belgilangan normani, albatta, bajaramiz...

Boshliq ustozimizga xayf-san berdi. Biz bir zumda egatlarga «sochilib» ketdik. Ustozimizning xo'rlanib izimizdan mahzun tikilib qolganiga achindik. Garchi u kunlar o'tmishda qolib ketgan bo'lsa ham, ustozimiz paykallar boshida yoqqan o'sha oloviga qo'llarimiz bilan qo'shib qalbimizni ham iltganini hanuzgacha eslaymiz...

Aziz o'quvchi! Bugun siz barcha imkoniyatlar eshigi ochilgan davr-u zamonlarda ta'lim-tarbiya olayapsiz. Hamisha yuksak marralar sari qadam tashlashingizni ko'rib, Sizga havasim keladi.

AXTAMQULI

BALLI, SARDORLAR!

«Kamolot» yoshlar

ijtimoiy harakati tizimidagi

sardorlarning faoliyati, bilim-ko'nikmasi, yetakchilik qobiliyati, erishgan natijalari, taklif-tashabbuslarini baholash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, faol sardorlarni rag'batlantirish maqsadida joriy yilning 5-7-may kunlari Andijonda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari sardorlari o'rtasida «Yil sardori» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlovda shahar va tuman bosqichlarida g'olib bo'lgan umumta'lim maktablaridagi «Kamolot» va «Kamalak» hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi «Kamolot» sardorlari «Men – sardorman!», «Iste'dod», «Intellektual ring», «Tashabbus» shartlari bo'yicha bellashdilar.

Yakuniy hisobga ko'ra, Bo'z tumani vakili Sitara Asatullayeva g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shahrixonlik sardor Mavluda Rahmonova 2-, paxtaobodlik Shohida Abdulboqiyeva 3-o'ringa loyiq topildi.

G'oliblar va faol ishtirokchilar Harakatning viloyat Kengashi tomonidan esdalik sovg'alari, diplom hamda faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

NURBEK

TONG YULDUZI A'LOCHILARI

HAR SOHADA ILG'OR QIZ

Sizga tanishtirmoqchi bo'lgan tengdoshingiz Mohidil G'afurova Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 31-umumta'lim maktabining 8-«B» sinfida a'lo baholarga o'qiydi.

U barcha fanlarni qunt bilan o'rganmoqda. Bo'sh vaqtlarida badiiy asarlar o'qishni, shaxmat o'ynashni yoqtiradi. O'tgan yili «Kim ko'p kitob o'qiydi?» Respublika tanlovida qatnashib, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Bu yil esa «Orasta qizlar» ko'rik-tanlovi hamda «Kamalak» yulduzlari bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichlarida muvaffaqiyatli qatnashdi.

U fanlarni a'loga o'zlashtirish bilan birga, jamoat ishlarida ham faol qatnashib kelmoqda. Mohidil o'z maktabi va Bekobod tumani «Kamalak» bolalar tashkilotining «Sport, salomatlik va ekologiya» yo'nalishi sardori bo'lib faoliyat olib bormoqda. 2016-yilda bo'lib o'tgan «Kamalak» bilimdonlari» ko'rik-tanlovida guruh sardori sifatida qatnashib, faxrli 1-o'ringa sazovor bo'ldi.

Kelajakda ona Vatanimiz ravnaqi yo'lida yetuk mutaxassis sifatida xizmat qilishga ahd qilgan a'lochi qizimizga omad yor bo'lishini tilaymiz.

Dilorom HOTAMOVA

Odatda

fan olimpiadalarining har bir ishtirokchisi faqat bitta fandan o'zaro bahslashadi. Kimdir matematika, kimdir ona tili va adabiyot, yana kimdir tarix yoki chet tillaridan.

fandan o'z bilim darajasini sinovdan o'tkazishdi.

– «Jamoaviy olimpiada»ni o'tkazish 3 bosqichdan iborat bo'lib, avvali maktab bosqichi.

Navbatdagi o'quv yili ham nihoyalab bormoqda. Sinovlar oldidan o'quvchilar yil davomida olgan bilimlarini yana bir bor takrorlab olish harakatida. Ayniqsa, bitiruvchi sinf o'quvchilarining hayajonini so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Shunday kezlarda ustozlarning hayajoni shogirdlarinikidan kam emas.

BOLALIKNING YORQIN IZLARI

Jizzax shahridagi 21-umumta'lim, maktabida bo'lganimda, bunga yana bir bor amin bo'ldim. Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Dilbar Mahmudova bilan suhbatimiz chog'i 9-«V» sinf o'quvchisi Malika Ilhomova Moskva shahrida bo'lib o'tgan «Yangi nomlar» xalqaro tanlovida dutor yo'nalishi bo'yicha sovrindor bo'lganini bilib oldim. Mahorat

«Orasta qizlar» ko'rik-tanlovining «Shaharning eng pazanda qizi» nominatsiyasi g'olibi bo'libdi. Ona tili va adabiyot fanidan olimpiadada ham sovrindorlar safidan joy olibdi. 9-«B» ning faol o'quvchilaridan biri Gulnoza Abduraimova «Prezident asarlari bilimdoni» ko'rik-tanlovining g'olibasi, fan olimpiadalarining faol ishtirokchisi ekan. 8-«A»dan Gulsevar Xo'jayeva kitobxonlik bo'yicha tanlovining viloyat bosqichida 1-o'ringa sazovor bo'libdi. 9-«V»ning yana bir o'quvchisi, umidli yosh bokschi Doniyor Xolmatov Belarusda bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada g'olib chiqib, yurtimiz sharafini munosib himoya qildi.

Dilbar opa bilan qisqa muloqotimiz chog'i Istiqlol sharofati tufayli ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan keng imkoniyatlar bois o'quvchilarning qo'lga kiritayotgan yutuqlari borasida fikrlashib oldik esa, ko'plab o'quvchilar ishonchini oqlab, maktab hayotida o'zlarining munosib izlarini qoldirishga erishibdilar. Bu esa nihoyatda quvonarlidir.

Yusuf ABDULLAYEV



darsi chog'ida rus xalqining mashhur «Kalinka» qo'shig'i musiqasini balalaykada ijro etib berganida, tomoshabinlar olqishidan zal larzaga kelibdi. Sinf rahbari Dilbar Aliyeva ham shogirdining ko'plab yutuqlarini sanab o'tdi. 9-«A» dan Zilola Komilova

Asosiy ustozlar ishonchini oqlab, maktab hayotida o'zlarining munosib izlarini qoldirishga erishibdilar. Bu esa nihoyatda quvonarlidir.

bilan ham ahamiyatlidir. Unga ko'ra, har bir o'quvchi faqat bitta fandan emas, balki 12 ta fandan o'z bilim darajasini sinovdan o'tkazishdi.



JAMOAVIY FANLAR OLIMPIADASI

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 14-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan «Jamoaviy fanlar olimpiada»si ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otdi. 8-sinf o'quvchilari o'rtasida tashkil etilgan tajriba-sinovi tarzidagi bellashuvda barcha fanlar qamrab olingani

Unda dastlab har bir sinfdagi barcha o'quvchilar orasida, keyin esa sinflararo o'tkaziladi, – deydi tuman XTMFMTTE bo'limi mahorat maktablari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi guruh rahbari, fizika-matematika fanlari nomzodi O'ktam Xudoyorov. – Tanlovning ushbu bosqichidan eng yaxshi natija ko'rsatgan 15 nafar o'quvchilar 2-bosqichda ishtirok etish huquqiga ega bo'lishadi. Bugungi o'tkazilayotgan bellashuv 2-bosqich – tuman bosqichi bo'lib, unda tumanimizdagi 23 ta maktabdan 15 nafardan jami 345 ta eng salohiyatli, bilimli yoshlar o'zaro bellashishdi. Shulardan eng yaxshi natija ko'rsatgan 15 nafar o'quvchi saralab olinib, 3-bosqich, ya'ni

viloyat (shahar) bosqichiga yo'l oladi.

Ta'lim tizimida olib borilayotgan bu kabi qator salmoqli ishlar yurtimizda yosh avlodni komil



inson bo'lib ulg'ayishi, ma'rifati, ma'naviyatli shaxs sifatida kamol topishi uchun zamin yaratmoqda, desak adashmagan bo'lamiz.

Jamoliddin ABDULLAYEV



Bugungi
kunda mamlakatimizda o'quvchilarning yuqori darajada bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 113-umumta'lim maktabida ingliz tili fani oyligini kuzata turib, bunga yana bir bor amin bo'ldik.

Odatda fan oyliklari boshlanishi bilan o'quvchilarning ushbu fanga bo'lgan qiziqishi yanada ortib boradi. Ingliz tili fani oyligi davomida maktabda turli musobaqalar, bellashuvlar, shu tilda sahna ko'rinishlari o'tkazib kelinadi. Munira Tolipova rahbarlik qilayotgan mazkur muassasada tadbir kutilganidek yuqori saviyada, AKTdan samarali foydalanilgan tarzda tashkil qilindi.



O'quvchilar
INGLIZ TILI FANI OYLIGIDA faol ishtirok etmoqda

– O'qituvchi o'z o'quvchilarini darsga qiziqitira olsa, o'shandagina yuqori samaradorlikka erishadi. Shu bois ham o'quvchilarni darsga jalb etish mahorati har bir pedagogning birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi, – deydi ingliz tili fani o'qituvchisi hamda ushbu tadbir tashkilotchisi Shohista Jalilova.

Darhaqiqat, mazkur ta'lim muassasasida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Ushbu fan oyligida bir qancha ochiq darslar, shuningdek, «Yosh ingliz tili bilimdonlari» mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir ham bo'lib o'tdi.

Jamoliddin MUHAMMAD o'g'li

LESSON 88

THE SILVER KEY



It was stormy night. A traveller reached an inn. As the hour was very late, he found the door locked from within. He knocked at the door.

The gate keeper responded to the knock, saying, «I have lost the key and the door cannot be opened unless you have a silver key with you».

The traveller understood what he meant by the silver key. He immediately slipped a silver coin under the door and it was opened.

As soon as he got in, he said to the gate keeper, «I have left my box outside, please bring it». As the gate keeper went out to bring the box, the traveller closed the door behind him.


The keeper asked him to open the door so that he may come in. Now the traveller replied from within, «I have lost the key and a silver key is needed to open the door». Soon the coin was pushed again through the hole and the dishonest man was let in.

So dear children be honest to everybody.

OUR KITCHEN ... (Bizning oshxona...)

You are in the kitchen. Where would you put these things?


- 1) Milk
- 2) Meat that you are going to cook
- 3) Rice
- 4) Dirty cups and saucers
- 5) Clean cups and dishes
- 6) Biscuits and a packet of spaghetti



Prepared by Dinora SHAKIROVA

CROSSWORD

Dear pupils if you complete the empty boxes with the name of these things in the picture you can find the hidden word. What is it?



Sarvinoz NAZAROVA, the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University

LET'S MAKE NOUNS

Complete the tables and mark stress on each word.

Verb	Noun
educate	education
improve	
jog	
govern	
spell	
hesitate	
arrange	

RIGHT OR WRONG?

- | | Right | Wrong |
|--|-------|-------|
| 1. It's thawing . This means the snow is melting. | ... | ... |
| 2. If someone says to you, «Oh. Sorry!» – you should reply, « You're welcome! » | ... | ... |
| 3. If people sneeze, you usually say, « Bless you! » | ... | ... |
| 4. He had a very high hedge around his house. | ... | ... |
| 5. We can't swim here – the water is too shallow . | ... | ... |
| 6. The opposite of expensive is dear . | ... | ... |
| 7. People who are very hungry often say «I could eat a horse!» | ... | ... |

Dono AHMEDOVA

FIND THE RIGHT DEFINITION



- ... – a separate seat for one person, typically with a back and four legs.
- ... – a natural or artificial hollow into which something fits or in which something revolves.
- ... – a substance used with water for washing and cleaning.
- ... – a decorative container without handles, typically made of glass or china and used as an ornament or for displaying cut flowers.
- ... – a strip of plastic, metal, or wood with a row of narrow teeth, used for untangling or arranging the hair.
- ... – a hard, brittle substance, typically transparent or translucent, made by fusing sand with soda and lime and cooling rapidly.

Ibrohim FAYZIRAHMONOV. Painter: YOQUBBEK

DURDONANING QAL'ASI

Durdona Yo'ldosheva Parkent pedagogika va iqtisodiyot kollejining maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'quvchisi. U she'riyat shaydosi. Ta'lim maskanida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning faol ishtirokchisi. Shu bois, kollej ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Ijodbiddin Qambarov Durdonaga «Yurt kelajagi – iqtidorli yoshlar qo'lida» tanlovida ishtirok etishni tavsiya etdi.

– Mashhur vatandoshimiz shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga ketar chog'i go'zal Zarkentning so'lim go'shalaridan biri Avliyo ota ziyoratgohini tavof aylab, shifobaxsh, ming dardga davo suvlaridan ichgan ekan, – deydi

Durdona faxr bilan. – Shunday ulug' ajdodlarimizdan birining nazari tushgan, qadamlari izi qolgan yurtدا tug'ilib, yashashning o'zi bir baxt.

Biz yosh ijodkorga muvaffaqiyatlar tilab, «Onajonim» she'rini hukmingizga havola etdik.



HAMDULLAYEV olgan sur'atlar

Orzularim osmonida o'zingiz, Jonga darmon bag'ishlaydi ko'zingiz, Ming bor eshitsam-da to'yamam so'zingiz, Qalbim oftobisiz, aziz onajon!

Farishtasiz yuzida kulgichi bor, Siz borsiz ko'nlimda hamisha bahor, Dillarda porlagan nuri ulug'vor, Qalbim oftobisiz, aziz onajon!

Asli quyosh olgan sizdan mehri, Hatto eritguvchi g'azab, qahrni, Aytimg, kim bilmabdi bunday sehrni, Qalbim oftobisiz, aziz onajon!

N. NAZAROVA



TINCHLIK QAL'ASI

Jonajon o'lkam, Bog'lari ko'rkam, Tog'lari ulkan, O'zbekistonim!

Keng dala-qirli, Qishi qahrli, Yozi mehri, O'zbekistonim!

Musaffo havo, Giyohi davo, Chorlagan navo, O'zbekistonim!

Ajdodlari pesh, Hamma ishi besh, Istiqloqga esh, O'zbekistonim!

Tilda allasi, Dilda yallasi, Tinchlik qal'asi, O'zbekistonim!

Xalqi serhimmat, Madhi purhikmat, Barchaga ibrat, O'zbekistonim!

OROMGOH MADHIYASI

Bizning oromgoh, Sevimli dargoh. Hammamiz ahil, Yashasin ta'til!

Hurmiz, ozodmiz, Baxtli avlodmiz. Mustaqil yurtda, Uchqur qanotmiz.

Tashlaymiz qadam, Yurarmiz shaxdam. Sog'lom avlodmiz, Uchqur qanotmiz.

O'ynab-kulamiz, Kuchga to'lamiz. Vatanga sodiq, Posbon bo'lamiz.

Tetikmiz, bardam, Quvnoqmiz har dam. Kuchga to'lamiz, Polvon bo'lamiz.

So'lindir bog'lar, Chorlaydi tog'lar. Sayr-u sayohat, Tanlarga rohat.

Jasur, kuchlimiz, Humo qushimiz. Vatanga xizmat – Sharaf-burchimiz.

Shu aziz tuproq, Dala-dasht, o'tloq. Musaffo osmon – Hur O'zbekistonim!

DUNYO XARITASI

– Amerika olis joy, Dunyoning u chetida. Qiz bolaga nima bor, O'qisin o'z yurtida... Kampirlarning suhbatlari, Juda uzoq cho'zildi. Uni kuzatib Vali, Ich-ichidan ezildi. – Buvijonlar, siz aytgan Yurtlarni men bilaman. Agarda katta bo'lsam, Men ham borib kelaman. – Hoy, zumrasha, qayoqdan Bilasan hammasini. – Dadam olib bergan-da, Dunyo xaritasini.

Zarnigor JO'RAYEVA,

Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 38-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

SIZNING QIZINGIZ

Siz bizga o'rgating faxr-iftixor, Kimning qizisan, deb so'ranglar bir bor. Qalbim hayajonga to'lar o'shanda, Sizning qizingiz, deb javob berganda.

Niyatim yuzingiz yorug' qilmoqlik, Istagim Zulfiya qizi bo'lmoqlik. Sizga keltirayin har doim rahmat, Mehringiz sababi cheksiz muhabbat.

Gulchehra AKROMOVA, Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 36-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi



O'ZBEKISTON YOSHLARI

Bilimdon hamda zukko, Chaqnaq turar ko'zlari. Bir so'zli, matonatli, O'zbekiston yoshlari.

Maydonlarda yengilmas, Raqibiga yo'l bermas. Olg'a yurish shiori, O'zbekiston yoshlari.

Fayoz SAYFIDDINOV, Sergeli tumanidagi 8-umumta'lim maktabining 3-«V» sinf o'quvchisi

Qorong'i tunda eshik qattiq taqilladi. Oyisi hadeganda chiqavermagach, Zokimning o'zi eshik oldiga kelib, tirqishdan mo'raladi. Hech kim yo'q... U joyiga yotmoqchi bo'lib endi yonboshlagan edi hamki, eshik qo'ng'irog'i yana jiringladi.

Zokir eshikka borib «Kim?» deb so'radi. – Biz, Zokirjon, eshikni oching!

U muloyim ovozdin xotirjam tortdi va eshikni qiya ochdi. Shu payt xonaga bir oyog'i kalta X, dumi yo'q G, Q va boshqa harflar xafa bo'lib kirib kelishdi. Ular qo'llarida uzun ruchkalar bilan qurollanib olishgan edi. Zokir qo'rqqanidan yugurib xonasiga kirib yotib oldi. Shu payt ustida chirpirak bo'lib uchayotgan Adabiyot, Matematika, Ona tili, Fransuz tili daftarlariga ko'zi tushdi. Ular Zokimning yuz-ko'zlariga ayamay urilar va yana ko'kka ko'tarilardi.

Kimyo, Fizika, Biologiya va Zoologiya kitoblari uning qo'llarini mahkam tutib, Matematika huzuriga olib borishdi. Matematika boshiga katta toj kiyib olgan, uning yonida esa Adabiyot va Ona tili kitoblari turardi. Matematika darg'azab bo'lib Zokirga qaradi va:

– Bu bolaning aybi nima? – dedi do'rillab. – U hamma harflarning oyoq-qo'llarini uzib oladi, mana, mening ham dumimni yulib olgan, – dedi Q harfi zorlanib.

– Ha, bu bola hammamizni qing'ir-qiyshiq yozadi, oqibatda birimiz cho'loq, yana birimizning qo'llarimiz bir-biriga yetmay qolgan, – deyishdi Ch bilan Sh harflari kalta qo'llarini ko'rsatib...

Zokir jiqqa terga botib ketdi. Matematika o'tkir nigohlarini undan uzmas, Ona tili va Adabiyot esa uning hukmini yumshatishga harakat qilishardi.

Hamma jim qolib, so'z Matematikaga berildi:

– Harflarning arzini eshitib, shunday xulosaga keldik: Zokimning qo'llariga yuz darra urilsin, toki bu boshqalarga ibrat bo'lsin!

– Voy do-od, oyijon!!!

Zokimning ovozi chiqmadi. U terga botib, tinmay

tipirchilar, atrofdagi harflar esa «Zokir, Zokir!» deb baqirishardi. Chiroq nurlaridan ko'zlari qamashgan Zokir yig'lab yubordi. U karavotidan tushib yerga yotib olgan, tinmay depinardi. Oyisi uni yelkasidean ohista quchdi.

– Yomon tush ko'rdingmi, bolam? Zokir shosha-pisha daftar-kitoblari turgan stolga qaradi. Ular joy-joyida turardi.

Ertasi kuni Zokir hamma fanlardan yangi daftar tutdi va barcha harflarni chiroyli husnixat bilan yoza boshladi...

Odina SAHOBIDDIN qizi, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi



YOQUBBEK chizgan rasm

– Shunday denglar, – dedi Matematika harflarni ko'rib. Shu payt Zokir ona tili o'qituvchisi Zulayho opaning gaplarini esladi:

– Harflarni bir-biriga ulab, chiroyli qilib yoz. Aks holda, ular sendan ranjib qoladi-ya, o'g'lim!

Ha, Zulayho opa bekorga aytmagan ekan, mana oqibati. Endi nima qiladi? Fanlar shohi Matematika qanday qaror chiqaradi?



NAFOSAT BAYRAMI

O'tgan hafta poytaxtimizdagi Badiiy gimnastika bo'yicha bolalar o'smirlar ixtisoslashtirilgan respublika olimpiya xazirasi sport maktabida badiiy gimnastika bo'yicha kattalar o'rtasida Osiyo chempionati, Jahon kubogi bosqichi hamda «Happy Caravan» xalqaro turniri bo'lib o'tdi. Musobaqalarda O'zbekiston, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya, Gonkong, Hindiston, Indoneziya, Malayziya, Tailand, Qozog'iston, AQSH, Isroil, Belarus, Ispaniya, Polsha, Rossiya, Estoniya, Armaniston kabi mamlakatlardan ko'plab nafosat malikalari g'oliblik uchun bahs olib bordilar.

Uch kun davom etgan Osiyo chempionati bellashuvlarida sportchilar shaxsiy va guruhlar o'rtasida ko'pkurash va alohida gimnastika predmetlari yordamida mashq bajarish bo'yicha o'zaro bellashdilar. Ishtirokchilarning to'p, bulava, tasma, halqa yordamida ijro etgan chiqishlari hakamlar hay'ati tomonidan munosib baholab borildi. Biz uchun quvonarlisi, turnirda ona Vatanimiz sharafigini himoya qilgan Yelizaveta Nazarenkova shaxsiy ko'pkurash bahslarida kumush medalga sazovor bo'ldi.

«Happy Caravan» xalqaro turniri ham muxlislarga bir-biridan qiziqarli onlarni hadya etdi. Ayniqsa, yurtimiz sportchilarining betakror chiqishlari ko'pchilikda iliq taassurot qoldirdi. Jumladan, Jahon kubogi bosqichining alohida gimnastika predmetlari yordamida mashq bajarish bo'yicha shaxsiy bahslarda ham yurtimiz Anastasiya Serdyukova to'p va tasmada mashq bajarishda ikkita bronza medalini qo'lga kiritdi. Shuningdek, Yelizaveta Nazarenkovaning bulava bilan namoyish etgan chiqishlari hakamlar tomonidan 3-o'ringa munosib ko'rildi.

«Happy Caravan» xalqaro turnirida ishtirok etgan badiiy gimnastikachilarimiz ham g'oliblikni qo'lga kiritishi uchun o'zlarining bor mahoratini namoyish etdilar. Shaxsiy bahslarda Nuriniso Usmonova arg'amchi, halqa va to'p bilan mashq bajarish bo'yicha bir yo'la uchta bronza medalini qo'lga kiritdi. Yana bir gimnastikachimiz Milana Tyan esa bulavada mashq bajarishda bronza medal bilan taqdirlandi.

Shunday qilib, poytaxtimizda o'tkazilgan navbatdagi nufuzli musobaqalar yakuniga yetdi. O'ylaymizki, bu galgi bellashuvlar ham mamlakatimiz sportchilari uchun har tomonlama foydali bo'ldi. Biz nafosat malikalarimizga galdagi nufuzli musobaqalarda omadlar tilaymiz.

Sa'dullo TURSINOV



Shuningdek, u bulavada mashq bajarishda kumush, to'pda va halqadagi chiqishlar bo'yicha bronza medallarini qo'lga kiritdi. Jahon kubogi bosqichi hamda

MEN HAM SHAXMAT O'YNAYMAN

Shu yilning 17-21-may kunlari umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida shaxmat bo'yicha mamlakat chempionatining respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamkorligida tashkil etilgan mazkur bellashuvning maktab, tuman, shahar bosqichlarida muvaffaqiyatli ishtirok etgan shaxmatchi o'g'il-qizlar respublika bosqichida bellashdi.

7, 9, 11, 13, 15 yoshgacha bo'lgan umumta'lim maktabi o'quvchilari alohida guruhlariga bo'lingan holda o'z qobiliyatlarini sinovdan o'tkazishdi.

Men sportga, ayniqsa, shaxmatga juda qiziqaman. B o' s h



vaqtlarimda shaxmat o'ynayman, — deydi Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi 32-umumta'lim maktabi o'quvchisi Shahriyor Sharipov. — O'tgan musobaqalarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etganman. Bu galgi musobaqalarda ham bor mahoratimni, imkoniyatimni ishga soldim.

Bugungi kunda sport, ayniqsa, shaxmat o'quvchilarning eng sevimli mashg'ulotiga aylangan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Boisi, tili chiqqan bola borki, «Men ham shaxmat o'ynayman», deydi. Ushbu chempionat ishtirokchilarining aksariyati hali maktabga bormasidanoq shaxmat o'ynashni o'rgangani suhbat davomida ma'lum bo'ldi. Ushbu yosh sportchilardan kelgusida yurt sha'nini himoya qiladigan shaxmat ustalari yetishib chiqsa, ajabmas.

N. JAVHAROVA

SHERZOD TAILANDGA BORADI

Suratdagi bu yigitlar muaytay bo'yicha bir necha marta O'zbekiston chempioni bo'lgan sportchilardir. Ular hozirda Buxoro viloyatining Olot tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabining umidli tarbiyalanuvchilari sanaladi.

Sherzod Shukurov o'tgan yili 2000–2001-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi mamlakat chempionatida g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, joriy yilning aprel oyida O'zbekiston kubogida 63,5 kg vazn toifasida 1-o'rinni egalladi. Mazkur musobaqa

2016-yilning sentyabr oyida Tailandda bo'lib o'tadigan o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatiga yo'llanma berishi bilan yanada ahamiyatli edi. Sherzod hozirdanoq ustozlari Jobir Ahmedov bilan kuzgi safarga tayyorgarlikni boshlab yubordi.

Yusuf Beshimov esa yuqorida aytib o'tilgan mamlakat kubogida qatnashib, 45 kg vaznda faxrli 3-o'ringa loyiq topildi.

Tumandagi 10-umumta'lim maktabining 9-sinf bitiruvchisi garchi Tailandda bo'ladigan jahon chempionatida qatnashish huquqini qo'lga kiritgan bo'lsa-da, shashtini tushirgani yo'q. Ustozlari Shohzamon Jo'rayev murabbiyligida o'z ustida tinimsiz ishlamoqda.

Ulug'bek SAIDOV



ZARKENTLIK KURASHCHI QIZ

O'zbek Milliy kurashi to'garagi qatnashchisi Nargiza Abdulatipova Namangan viloyatining eng chekka hududlaridan biri Zarkent qishlog'idagi 47-umumta'lim maktabining 8-sinfida tahsil oladi. U kamtar va irodali qiz. Bolaligidan o'qishga va sportga bo'lgan qiziqishi baland.

2013-yildan buyon o'zbek milliy kurashi va dzyudo to'garaklarida faol qatnashib, ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqda. 2013-yilning may oyida Buxoroning Olot tumanida dzyudo bo'yicha O'zbekiston chempionatida qatnashib, 3-o'rin, noyabrda esa Qarshi shahrida bo'lib o'tgan Milliy kurash chempionatida 2-o'rinni qo'lga kiritishi o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshirdi. Natijada, 2014-yil may oyida Andijonda bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida 1-o'rin, Namanganda o'tkazilgan musobaqada ham 1-o'rinni egalladi. 2015-yildan boshlab 4 karra O'zbekiston chempioni bo'ldi.

Nargiza uchun 2016-yil ham omadli keldi. Aprel oyida Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan musobaqada 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Yosh sportchi bugungi kunda murabbiy Komiljon Bo'tayevning ishongan shogirdlaridan biridir. Nargiza Abdulatipovaning kelgusida Osiyo va jahon chempionatlarida g'oliblar safida bo'lishiga ishonchimiz komil.

Shukrulla G'ULOM

XUSH QOL ENDI, MAKTABIM!

Maktabimizning bitiruvchi sinf

o'quvchilari kechagina 1-sinfga qadam qo'yishgan edi. Bugun bo'lsa, jonajon dargoh bilan xayrlashmoqdalar. Nahot, yillar shu qadar shiddat bilan o'tib ketsa. Nahot, endi partalarda o'tirish, sinfdoshlar bilan bo'ladigan zavqli damlar qaytib kelmasa...

Doimo 25-may kuni «Xayr maktab, salom kollej!» nomli tadbir bo'layotgan bir vaqtda barcha bitiruvchi sinf o'quvchilarining ko'zlaridagi yoshga guvoh bo'laman. Orzu-umidlarga to'la ko'zlar bir nuqtaga tikilganicha ilk bor maktabga qadam qo'ygan kundan to hozirgi o'smirlik davri oralig'ida sodir bo'lgan voqealar kinotasmadek aylanadi-yu, qora ko'zlaridan yosh dumalaydi.

Bitiruvchi ko'z yoshini atrofdagilarga sezdirmaslik payiga tushib hayajondan dir-dir titrayotgan barmoqlari bilan artib yashiradi. Qo'ng'iroq chalinganda esa endi ko'z yoshlarini yashirishning hech iloji qolmasdan: «Xush qol endi, maktabim», deya lablar titrab ketadi...

Sitora NAPASOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 12-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



Toshkent

viloyatining Chirchiq shahridagi Sabura opa Yo'ldosheva rahbarligidagi musiqa va san'at maktabida o'z kasbining fidoyi ustozlari bolajonlarga san'at sirlarini o'rgatib kelmoqda.

JAHONDA YANGRAGAN NAVOLAR

O'zlari tanlagan yo'nalishlarda mashg'ulotlarga qatnashayotgan yoshlar orasida iste'dodlari ko'pchilikni tashkil etadi. Ular turli tanlovlarda ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishmoqda. Jumladan, 2015-yilda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan ko'rik-tanlovda Iroda Boymirzayeva faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritgan. Shuningdek, iqtidorli o'quvchilardan Rahimjon Rustamov, Shahboz Abdulhayev (nay), Hidoyat va Dilnoza O'rinboyevalar, Dilnoza Iminova, Shahzoda Tuyakova (raqs), Akbar Ramazonov (estrada xonandaligi) kabi yoshlar turli tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallab, atrofdagilar e'tirofiga sazovor bo'lishdi.

Bir so'z bilan aytganda, san'atning inson ma'naviyatini yuksaltirishidagi ahamiyatini anglagan, kelajakda o'zbek san'atini dunyo bo'ylab yangrashini niyat qilgan jazzi qalb sohiblari katta ishga bel bog'lashgan.

Ilhom RAHMONOV,
Shaxobiddin MAXMADIYEV



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

Aylana xonalaridagi harflarni soat mili yo'nalishida o'qish bilan so'zlar hosil qiling. Qani, kim eng ko'p so'z o'qiy olar ekan?!



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Pazanda qizgal



Kerakli masalliq: 300 gramm sariyog', 6 dona tuxum, 1,5 piyola shakar, 500 gramm qatiq, 2 choyqoshiq qavartma, 4 oshqoshiq kakao, 3-4 stakan un.

Kremiga: 200 gramm sariyog', 1 banka quyultirilgan sut.

Tayyorlanishi: 6 dona tuxum oqi sarig'idan ajratiladi. Tuxum oqini 1,5 piyola shakar bilan ko'pirtirib olinadi va sarig'ini bitta-bittadan solib aralashiriladi. Alohida idishda qatiqqa qavartma, 100 gramm (xona haroratida yumshatilgan) sariyog' solib, bir xil massa holiga kelgunga qadar aralashiriladi va tuxumli massaga qo'shib, un va kakao solib suyuq xamir qoriladi.

Xamir ikkiga bo'linib, yog'langan gaz patnisiga quyib, oldindan qizdirilgan gaz pechida o'rta olovda

AJOYQB SAHJRGINLIK

25-35 daqiqa davomida pishiriladi. Ikkinchi bo'lagi ham shu tarzda pishiriladi. 200 gramm sariyog'ni 1 banka quyultirilgan sut bilan mikser yordamida krem tayyorlanadi va



pishgan bo'laklar orasiga surtib, ustidan eritilgan shokolad quyiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Bahodir GANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Vahobjon RAJPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Feruz MATYOQBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom
Feruza Feruzbek
KAMOL o'g'li Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi - 49552 Buyurtma - S 6013

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda Gazeta haftaning dushanba kunlari chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08 Tel./faks: 244-38-10